


**Toshkent shahrida
nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi**
2026-yil yanvar-iyun oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Toshkent shahrida 2026-yil yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik ish haqi 12 013,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)
[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)
[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)
[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2026- yilning yanvar-iyun oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2025- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahri	12 013,9	118,2
Uchtepa tumani	6 417,8	120,5
Bektemir tumani	7 736,0	116,5
Yunusobod tumani	15 038,5	124,2
M Ulug'bek tumani	13 706,9	121,7
Mirobod tumani	13 909,8	107,0
Shayhontohur tumani	13 673,5	121,6
Olmazor tumani	9 100,6	120,0
Sergeli tumani	10 466,0	114,6
Yakkasaroy tumani	11 956,0	116,1
Yashnobod tumani	11 487,0	124,1
Yangihayot tumani	6 514,3	113,0
Chilonzor tumani	10 445,0	122,1

Tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Yunusobod tumanida 15 038,5 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,2% ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich M.Ulug'bek tumanida 13 706,9 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,7%), Shayhontohur tumanida 13 673,5 ming so'mni (121,6%), Mirobod tumanida 13 909,8 ming so'mni (107,0%), Yakkasaroy tumanida 11 956,0 ming so'mni (116,1%), va Yashnobod tumanida 11 487,0 ming so'm (124,1%)ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Chilonzor tumanida 10 445,0 ming so'm (122,1%), Olmazor tumanida 9 100,6 ming so'mni (120,0%), Bektemir tumanida 7 736,0 ming so'mni (116,5%), Yangihayot tumanida 6 514,3 ming so'm (113,0%), hamda Uchtepa tumanida 6 417,8 ming so'mni (120,5%) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2026- yilning yanvar–iyun oylariga oid bo'lib, 2025- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	9 788,9	116,5 %
Qurilish	9 388,9	119,8 %
Savdo	8 405,4	111,5 %
Tashish va saqlash	13 447,3	129,0 %
Yashash va ovqatlanish	6 118,4	118,8 %
Axborot va aloqa	19 289,8	113,3 %
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	22 812,0	114,9 %
Ta'lim	8 884,5	129,0 %
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6 256,3	128,3 %
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	7 815,0	128,2 %
O'rtacha	12 013,9	118,2 %

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,9% ni, ish haqi miqdori esa 22 812,0 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, axborot va aloqa yo'nalishlarida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 19 289,8 ming so'mni tashkil etib, o'sish 113,3% ga, tashish va saqlash faoliyati sohasida ish haqi miqdori 13 447,3 ming so'mni tashkil etib, 129,0% ga, va sanoat sohasida o'rtacha ish haqi 9 788,9 ming so'mni tashkil etib, 116,5% ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi qurilish sohasida 9 388,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,8% ga, savdo sohasida 8 405,4 ming so'm ni tashkil etib, 111,5% ga, ta'lim sohasida 8 884,5 ming so'mni tashkil etib 129,0% ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 7 815,0 ming so'mni tashkil etib 128,2% ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha esa 6 256,3 ming so'mni tashkil etib 128,3%, yashash va ovqatlanish 6 118,4 ming so'mni tashkil etib, 118,8% ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2026- yilning 2-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 22 812,0 ming so'mni tashkil etib, 2022 - yilning mos davriga nisbatan 10 996,4 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 10 962,7 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 8 022,9 ming so'mga, sanoat sohasida 4 650,8 ming so'mga, qurilish sohasida 4 855,8 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 4 574,4 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 9 788,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 12 862,0 ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 13 144,4 ming so'm, qayta ishlab chiqarish sanoati sohasida 8 593,9 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida 8 364,5 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 8 405,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 12 645,6 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 9 221,5 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 7 576,8 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 13 447,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport 14 647,4 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti 10 293,2 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 6 573,4 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 19 289,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 22 334,2 ming so'mni, axborot xizmati ko'rsatish 23 983,8 ming so'mni, aloqa sohasi 14 775,3 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 22 812,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 29 825,3 ming so'mni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat 28 606,9 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 21 835,4 ming so'mni tashkil etgan.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm**



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 8 884,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 13 806,9 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 7 526,5 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 8 138,8 mingni so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 3 824,6 ming so'mni tashkil etgan,



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralarga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n –nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)



Tayyorlash uchun mas'ul:

Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

D.Axmedova
71 203-80-03 (35-73)

Manzil:

Toshkent sh., Amir Temur shoh
ko'chasi, 11 uy
